

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ INSHOLARIDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARNING ERKIN FIKRLASH QOBILIYATINI OSHIRISH

*Omirzakova Jazira Auesbaevna*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti.*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)"  
magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda yosh avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish, erkin fikr yuritish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, mantiqiy fikrlash, erkin fikr, turli tashabbuslar, interfaol metodlar, fan texnika.

O'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, mustaqilligi va faolligini rivojlantirishga, mantiqiy tafakkurini o'stirishga qaratilgan interfaol ta'lim olishlariga ko'mak beruvchi innovatsion usullardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zero, innovatsion texnologiyalar mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonida ma'lum o'zgarishlarga, ta'lim mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo'ladigan turli tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo'ladi. Ilm, fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo'llanilishi o'qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda. O'qituvchilarning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo'ladi. Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari - norasmiy bahs - munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.[1]

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat

tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. [2]Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. [3] O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Boshlang'ich ta'lim dasturlari, o'qitilayotgan o'quv predmetlarining tahliliy natijalari shuni ko'rsatadiki, 1-4- sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga yo'naltirilgan o'quv materiallarini to'g'ridan -to'g'ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo'lsa-da, mahoratli o'qituvchi o'z faoliyatini o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin. [4]Og'zaki so'rash; yozma ishlar o'tkazish; amaliy ishlarni bajarish; turli didaktik o'yinlar o'tkazish orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarning «O'qish» darsida bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish uchun o'quv materiallarida berilgan tushunchalar konkret -induktiv metod vositasida o'rganilishi va o'qituvchining mohirona darsni tashkil qilishi natijasida ularda ijodiy faollikning oshishiga zamin yaratilishi mumkin. Bunda o'quvchilar avval o'qituvchining topshiriqlarini bajargan holda o'rganilayotgan tushunchaning umumiy xossalarini aniqlaydilar, so'ngra o'qituvchi rahbarligida ta'rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar. Yangi tushuncha kiritishning bu yo'li ayniqsa quyi sinflarda o'z samarasini beradi. Bundan tashqari konkret induktiv yo'l orqali tushunchalarni kiritish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil bo'ladi, buning natijasida o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlari shakllanadi. Olib borilgan tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, ilmiy

dunyoqarashni shakllantirish maktabgacha tarbiya, maktabda boshlanishi va rivojlantirilishi lozim. Har bir bola eng kichik yoshdan boshlab, yoshiga mos, yaxlitlangan dunyoqarashga ega bo'lishi va rivojlanib borishi o'qituvchining o'quvchi shaxsiy traektoriyasini belgilab berishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Buning uchun boshlang'ich sinflarda tarixiy materiallarni o'rgatish jarayonida mustahkam zamin tayyorlanadi. Barcha fanlar o'qitish va o'rgatish jarayonlarida o'qituvchilar o'quv jarayoniga tarbiyaviy yo'nalishni singdirishi, ayniqsa, ilmiy-g'oyaviy imkoniyatini ochish vazifasi turadi. Bolaning ma'naviy ehtiyojlaridan biri bilishga intilishdir, bolalarda bu ehtiyoj atrofda narsabuyumlar, umuman, atrofda sodir bo'layotgan voqealarni kuzatishda qoplanadi. Darsning g'oyaviy saviyasi o'quvchiga taqdim qilinadigan bilimlar hozirgi zamon dalillariga muvofiq va milliy xalq ma'rifatparvarligi nuqtai nazaridan bayon qilish, shu bilimlar orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tushuniladi. Dastlab, tarixiy materiallar tarkibida mavjud bo'lgan hikoya, afsona, ertak va masallardan o'rinli foydalanish talab etiladi. Bunga shu yoshdagi bolaning uyda va maktabda shug'ullanadigan asosiy faoliyati bo'lgan o'qish, muomala, o'yin, mehnat yordam beradi. Bola yetti yoshga to'lguncha ma'lum bir ob'yekt va hodisalar haqida faqat reproduktiv va idrok etib bo'lmaydigan timsollarni payqashi mumkin. O'qishga kelishi bilan bola shaxsiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan tengdoshlari, o'qituvchilar, maktab o'quv qo'llanmalari orqali katta yo'l ochiladi. O'qish hisobigan ommaviy axborot vositalari orqali undagi aloqalar kengaya boradi, unga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadigan axborot oqimi kengayadi. Bola maktabga borishi munosabati bilan oilaning tarbiyaviy yo'nalishiga maktab ham katta yordam beruvchi sub'yektga aylanadi. Bolaning vaqti oiladan tashqari tengqurlari davrasida, o'quv mashg'ulotlarida, o'qituvchilar bilan turli vaziyatlarda muomala -munosabat holatida kechadi. Boshlang'ich sinflarda bolaga oila bilan maktabning ta'siri deyarli bir xil bo'ladi, shu sababli bu har ikki sub'yekt ham o'z faoliyati davomida tarixiy materiallardan foydalanish orqali ta'lim va tarbiyaviy tizimni yanada mustahkamlasa, bolaning ilmiy-g'oyaviy dunyoqarashi shakllanib boradi. Maktab o'qituvchisi o'z bilimi va imkoniyatlariga muvofiq o'quvchilarga halq orasida hurmatga sazovor bo'lgan olimlar, mutafakkirlar, ma'rifatparvarlarning faoliyatini, ularning fanlar tarixiga qo'shgan hissasi va g'oyalari bilan tanishtirib borishi o'quvchilarning fanga qiziqishini ortishiga hamda Vatanparvarlik tuyg'usini shakllanishiga olib keladi.[5]

#### **Xulosa:**

Bugungi kunda, boshlang'ich talimda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar, evristik suhbat, mantiqiy boshqotirma, loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga, ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishga, amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishga, ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr

yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka asoslangan. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. - T: «O'zbekiston», 2009.[1]
2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti // Boshl. ta'l. jurnali. Toshkent, 2005.[2]
3. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Bosh.ta'lim. jurnali. Toshkent, 2005.[3]
4. Abdullayeva Q., va boshqalar "Ona tili" T., "O'qituvchi "1999 yil.[4]
5. Bo'ri Ziyamammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnoloya-zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.[5]